



GLOBALLASHUV SHAROITIDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH IMKONIYATLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Tohirjonova Sevara Shavkatjon qizi
JIDU, XIM fakulteti, Tashqi iqtisodiy
faoliyat yo'nalishi magistranti
+998886802728
sevarashavkatjonovna@gmail.com

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich
JIDU, Xalqaro moliya va
investitsiyalar kafedrasi o'qituvchisi
+998909863538
ishmuradov@uwed.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xalqaro amaliy tajribalar va tadqiqotlarini tahlil qilgan holda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va uning ustuvorliklari, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizga zarurligi hamda ahamiyati haqida bayon etilgan. O'zbekistondagi TTXI dinamikasi ham batafsil ko'rib chiqilib, mamlakatda investorlar uchun yaratilgan sharoitlar va iqtisodiy islohotlar natijalari yoritilgan. Tadqiqot TTXIning rivojlanayotgan davlatlarni rivojlangan davlatlarga aylantirishdagi muhim rolini va ularning global iqtisodiyotni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Abstract. This article analyzes the role and importance of foreign direct investment (FDI) in the process of globalization. Analyzing international practical experience and research, it describes the attraction of foreign direct investment and its priorities, its necessity and importance for our national economy today. The dynamics of FDI in Uzbekistan are also examined in detail, the conditions created for investors in the country and the results of economic reforms are highlighted. The study reveals the important role of FDI in transforming developing countries into developed ones and their importance in shaping the global economy.



Аннотация. В статье анализируются роль и значение прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в процессе глобализации. На основе анализа международного практического опыта и исследований раскрываются вопросы привлечения прямых иностранных инвестиций и их приоритеты, необходимость и значение для современной экономики нашей страны. Также подробно рассматривается динамика прямых иностранных инвестиций в Узбекистане, освещаются условия, созданные для инвесторов в стране, и результаты экономических реформ. В исследовании раскрывается важная роль прямых иностранных инвестиций в преобразовании развивающихся стран в развитые и их значение в формировании мировой экономики.

Kalit soʻzlar: globallashuv, toʻridan-toʻgʻri iqtisodiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, investor, milliy iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, xususiy kapital, investitsion muhit.

Kirish. Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar oʻrtasida investitsiyaviy hamkorlik qilishning roli ortib, mamlakatlarda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nechogʻlik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu avvalambor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkonini beradi. Shu boisdan ham vatanimizga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy ragʻbatlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish oʻta muhim masalalardan biri hisoblanadi. 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiya va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida» gi OʻRQ-598-son Qonuni, 3-moddasida toʻgʻridan-toʻgʻri



xorijiy investitsiyalar keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni quyidagicha izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan hisoblanadi.

Joriy yilning 23-yanvar kuni Oliy Majlis Senatining uchinchi yalpi majlisida yangi tahrirdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ko‘rib chiqilib, unga ko‘ra Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Hujjat O‘zbekiston investitsiya qonunchiligini xalqaro standartlarga, transport vositalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (YUNCTAD) va Jahon savdo tashkiloti (JST)ga moslashtirishni maqsad qilgan. Shu orqali mamlakatda erkin, adolatli va ochiq investitsion muhitni kuzatishga intilmoqda.

Investitsiya loyihalarini samarali jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan xorijiy investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin, - deya ta’kidlab o‘tdilar . O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal

modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa

sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarga aylanishi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etishning samarali usullarini va xorij tajribalarini o‘rganish orqali mamlakat



iqtisodiy rivojlanishi uchun xorij investitsiyalaridan maksimal foydalanish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etishning milliy iqtisodiyotga ta’sirini (YaIM o‘sishi ish o‘rinlari yaratish) ilmiy metodlar asosida o‘rganish.

- Xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Xitoy) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishning samarali tamoyillarini solishtirish va O‘zbekiston uchun qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

- Xorijiy investitsiyalarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
- Mazkur sohada ilmiy amaliy taklif tavsiyalarni ishlab chiqish;
- O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adam Hayesning fikrlariga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) - bu boshqa davlatning investori, kompaniyasi yoki hukumati tomonidan xorijiy kompaniya yoki loyihadagi egalik ulushidir deb ta’kidlagan edi . Umuman olganda, bu atama xorijiy biznesda katta ulushga ega bo‘lish yoki yangi mintaqada operatsiyalarni kengaytirish uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish bo‘yicha biznes qarorini tavsiflash uchun ishlatiladi va odatda faqat xorijiy kompaniyadagi aksiya investitsiyasini tavsiflash uchun ishlatilmaydi deb aytib o‘tilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy elementi hisoblanadi, chunki u iqtisodiyotlar o‘rtasida barqaror va uzoq muddatli aloqalarni yaratadi.

B.A.Vaxobov esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta’sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir deb ta’kidlaydi . To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar investitsiyalarning boshqa turlaridan o‘zining uzoq muddatga



mo'ljallanganligi, asosiy vositalarga sarflanishi va mamlakatdagi ishlab chiqarish apparatini yangilanish ko'rsatkichlarini tezlashtirishga qulay imkoniyat tug'dirishi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xo'jalik sub'ektlari muomalaga chiqargan oddiy aktsiyalarning 10% dan ortiq qismini xarid qilgan investorlar ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ko'payishiga olib keluvchi iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi .

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim rol o'ynaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishiga ko'maklashdi,

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta'minladi. Eng muhimi, O'zbekistonning xalqaro bozorga o'z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi respublikamizda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etish bosqichlari bilan bog'liq bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini yaratish ham, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari shakllarini belgilab berdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimlari:

- O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shma korxonalarning barpo etilishiga asos soldi;
- xorijiy korxonalar barpo etilishiga zamin yaratdi.



Bugungi kunda mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish izchil ravishda davom ettirilib, bunda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili hisoblangan xorijiy investitsiyalarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki

mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda eng muhim omillardan bir investitsiyalardir.



1- rasm. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning real o‘shish sur‘atlari

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning real o‘shish sur‘atlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2021–2024 yillar davomida ushbu ko‘rsatkichda sezilarli o‘zgarishlar va dinamik rivojlanish kuzatildi. Xususan, 2021–2022 yillarda iqtisodiy tiklanish bosqichida umumiy investitsiya hajmlarida o‘shish bilan bir qatorda, ayrim davrlarda tebranishlar ham qayd etildi. Mazkur yillarda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi o‘rtacha 5–20% oralig‘ida o‘sdı. Markazlashmagan (xususiy) investitsiyalar esa ayrim choraklarda -20% gacha pasayib, iqtisodiyotdagi pandemiya va global iqtisodiy noaniqliklar ta’sirini aks ettirdi.



2023 yilda esa investitsiya faolligi jadal sur'atlarda oshdi. Jumladan, yil davomida asosiy kapitalga investitsiyalar real o'sish sur'ati ayrim choraklarda 60–70% ga yetib, mamlakat tarixida rekord ko'rsatkichlar qayd etildi. Ayniqsa, markazlashmagan investitsiyalarning o'sishi ayrim choraklarda 80% ga yetgani bilan ajralib turdi. Bu natijalarga O'zbekiston Respublikasida olib borilgan investitsiya muhiti liberallasuvi, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash choralari va yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi sabab bo'ldi.

2024 yilning dastlabki choraklarida investitsiyalarning o'sish sur'ati nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da, baribir umumiy ko'rsatkichlar yuqori darajada saqlanib qoldi. Mazkur davrda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar real o'sish sur'ati 20–30% atrofida bo'lib, pandemiyadan keyingi davrda shakllangan yuqori bazaviy asos bilan izohlanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga kelsak, 2021–2022 yillarda ularning hajmi har chorakda 500–1000 million AQSh dollari atrofida bo'lib, YAIMga nisbatan ulushi 3,1%–3,7% ni tashkil etdi. 2023 yilga kelib esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, yilning uchinchi choragida 3,7 milliard AQSh dollari ni tashkil etdi va YAIMga nisbatan ulushi 13,7% ga yetdi. 2024 yil boshida esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar darajasi biroz pasayib, 1,85–2,4 milliard AQSh dollari oralig'ida shakllandi, YAIMga nisbatan ulushi esa 9,9%–11,8% ni tashkil etdi. Umuman olganda, 2021–2024 yillar davomida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'sib borganini, bu esa O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalar bermoqda ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ilg'or xorij texnologiyasi va boshqaruv tajribasini jalb etish kabi strategik va joriy vazifalarni hal qilishda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat



kasb etadi. Shuning uchun, Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirishga yo‘naltirilgan faol siyosat olib borilmoqda.



2-rasm. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning maqsadli klasteri

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, yuqori jamg‘arish me‘yoriga ega bo‘lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o‘rish sur‘atlariga ega bo‘lishadi. Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini ko‘paytirish va uning iqtisodiy o‘rishini ta‘minlashdagi rolini oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri – bu jamg‘arish me‘yorining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta‘minlash hisoblanadi. Jamg‘arish me‘yori barqaror iqtisodiy o‘rishning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish orqali quyidagilarga erishiladi:

- Takror ishlab chiqarishni kengaytirilgan siyosatini omalga oshirish;



- Ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan qayta qurish va iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;
- Hududlarni iqtisodiy salohiyatini oshirish;
- Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;
- Ishsizlik muammosini yumshatish va ma'lum darajada hal etish;
- Zamon darajasida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mahsulot tannarxini pasaytirish.



3-rasm. Jahon amaliyotida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari

Hozirda dunyoning turli xil nuqtalarida investitsion oqimlarni o'ziga qaratishda yoki yanada oshirishda turli xil usullarni qo'llashadi. Haqiqatki, aynan o'sha usul orqali investitsion ilg'or davlatlar hozirgi mavqeiga erishishgan.



Asosiy xorij tajribasidan o'rganishimiz lozim bo'lgan jihatlar sifatida quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

1) davlat aralashuvini kamaytirish kerakligi. Agarda investitsiya jihatdan takomillashgan davlatlar tajribasini oladigan bo'lsak, ularda iqtisodiyotda davlat aralashuvi hamda kirib kelgan biznes xo'jaliklarining davlat tomonidan sotib olinishi holatlari deyarli uchramaydi. Qonunga ko'ra, O'zbekiston xorijiy va mahalliy xususiy tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va ularga egalik qilish, haq to'lanadigan faoliyatning aksariyat shakllari bilan shug'ullanish huquqini kafolatlaydi;

2) O'zbekistonning investitsion "yo'l-xaritasi"ni yanada takomillashtirish. Barcha rivojlangan davlatlar o'zlariga mablag' kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun yo'lxaritasini tuzib chiqishadi. Bunda mamlakatning turli xil ko'rsatkichlari keltiriladi. hamda mamlakatning hozirgi siyosati, soliq tizimi, biznes boshlash bo'yicha ilk qo'llanma, banklar tizimi, aholi qiziqishlari va demografik ko'payish sur'atlari, shu paytga qadar kiritilgan investitsiyalar qayerga va qancha miqdorda yo'naltirilganligi va hokazo kabi ma'lumotlar keltirilgan bo'ladi;

O'zbekistonda investitsiya siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;


- respublikamizda jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, xalq xo'jaligini zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan eshiklarni ochib qo'yish siyosatini izchillik bilan o'tkazish;



- mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishlarda jamlash;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish.

2024-yil 1-dekabr holatiga 15,450 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona va tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Eng yuqori ulushlar Xitoy 3,372 ta korxona (umumiy ulushning yetakchisi) va Rossiya (3,067 ta korxona) davlatlariga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, ro'yxatni Turkiya davlati 1,922 ta korxona, Qozog'iston 1,098 ta korxona, Janubiy Koreya 690 ta korxona, AQSH 312 ta korxona bilan davom ettirgan



4-rasm. Davlatlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'zgarishi



Rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, hozirgi kunda O'zbekistonga jalb etilgan barcha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning salmoqli qismi – ya'ni 23 foizi Xitoyga to'g'ri keladi. Bu raqam Xitoyning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ishtiroki tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Undan keyingi o'rinlarda Rossiya (13,8 foiz) va Turkiya (8,5 foiz) kabi davlatlar joy olgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning iqtisodiy hamkorlikda ustuvor yo'nalish sifatida aynan ushbu davlatlar bilan faol aloqada ekanini anglatadi.

1-jadval

Xorijiy investorlar uchun bojxona imtiyozlari¹

Imtiyoz turi	Tavsifi	Kimga tatbiq etiladi / Shartlar
Boj soliqlaridan ozod qilish	Xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiringan mol-mulk boj soliqlaridan ozod etiladi.	Xorijiy investorlar; "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida" gi qonun va Boj kodeksiga asosan.
Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) uchun imtiyozlar	Belgilangan tovarlarni olib kirishda bojxona boji (boj yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etiladi.	Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) ishtirokchilari.
QQS ni keyinga qoldirish	Olib kelingan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) 120 kungacha kechiktirish imkoniyati.	Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) ishtirokchilari.

O'zbekiston qonun hujjatlari va maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun turli bojxona imtiyozlarini belgilab bergan.

2022–2026 yillar uchun belgilangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da investitsiyalarni iqtisodiyotga keng miqyosda jalb etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, uning jozibadorligini oshirish va

¹ Lex.uz ma'lumotlariga ko'ra muallif tayyorladi.



kelgusi besh yil davomida jami 120 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni, shundan 70 milliard dollarini xorijiy investitsiyalar sifatida jalb etish koʻzda tutilgan. Bundan tashqari, investitsiyalardan samarali foydalanish va eksport hajmini oshirish maqsadida “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida yangi boshqaruv tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish boʻyicha strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish ham nazarda tutilgan. Strategiyada energetika, transport, sogʻliqni saqlash, taʼlim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xoʻjaligi kabi ustuvor sohalarda davlat-xususiy sheriklik asosida 14 milliard AQSh dollarigacha investitsiyalarni jalb qilish choralari ham alohida qayd etilgan. Bu esa Oʻzbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini taʼminlash va innovatsion rivojlanishni qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

“Oʻzbekiston joriy yil olti oyda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya hajmi oʻtgan yilga nisbatan 2 karra oʻsib, 14 milliard dollarga yetdi. Bunday raqamlar 33 yillik tariximizda boʻlmagan”.

2-jadval

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	2019 yil 1 yanvar holatiga	2021 yil 1 yanvar holatiga	2022 yil 1 yanvar holatiga	2023 yil 1 yanvar holatiga	2024 yil 1 yanvar holatiga
Qoʻshma korxonalar	4006	5672	5988	6419	4657
Xorijiy korxonalar	3554	6109	7301	9382	9396
Jami:	7560	11781	13289	15801	14053



Yillar kesimida xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni²

Jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinib turibdiki, 2019 yil boshiga xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni jami 7560 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 1,9 barovarga yoxud 6493 taga oshib 14053 taga yetgan, jumladan 4657 ta qo'shma korxona va 9396 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalardir. 2023 yilda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 16 foizga –2,6 mlrd dollardan 2,2 mlrd dollargacha qisqardi. Ular orasida yirik xalqaro kompaniyalar (KIA, BAT Industries, Newmont va Coca Cola) bilan tuzilgan qo'shma korxonalar ham bor. Biroq, umumiy hisobda, O'zbekiston hozirgi vaqtda aholi soniga nisbatan va Markaziy Osiyoning qolgan qismi bilan solishtirganda mutlaq ko'rsatkichlarda juda kichik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, respublika xududlariga xorijiy

investitsiyalarni jalb qilishda qator muammolar mavjud:

□ tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya

loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari etarli emasligi -

hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar

tashkil etish va foliyatini rivojlantirish;

□ investitsiya takliflari va loyixa texnik-iqtisodiy asoslarining

belgilangan talablarga javob bermasligi – tadbirkorlarga investitsiya

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

☐ loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi – investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishi.

Taklif va tavsiyalar

Xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

☐ investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza va qonunchilikni takomillashtirish;

☐ mamlakatimizda chuqur institutsional o'zgarishlar orqali investitsiyalarni boshqarishda davlat institutlari sifatini oshirish;

☐ erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish;

☐ hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini tezlashtirish va kengaytirish;



□ investitsiyalarni faol o'zlashtirishda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish yordamida ishchi kuchidan oqilona foydalanishni tashkil etish va mehnat unumdorligini oshirish;

Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va muammolar echimini toppish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik

kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiylikini ta'minlash lozim.

Xulosa.

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining tavsifi va miqiyoslariga bog'liq. Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:



1. Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlashda chet el kapitalining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidan foydalanish katta ijobiy natijalar beradi.

2. Har doim ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga keng ko'lamda va yirik hajmda jalb qilish iqtisodiy samaradorlikka olib kelavermaydi. Shuning uchun, chet el kapitalini milliy iqtisodiyotga faol jalb qilish bilan birga, iqtisodiyotning absorbsion salohiyatini oshirish, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, ular bilan birga kirib kelayotgan zamonaviy texnika va texnologiyani ishlata oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi 598-sonli O'RQ.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr/Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ma'ruzasidan. 2024 yil 20 avgust, Nukus

4. Kun.uz va Statistika agentligi ma'lumotlari

5. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O'quv qo'llanma

6. Хайдаров Н.Х. Тўғридан-тўғри инвестициялар имкониятлари// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, №1, 2011 й, 4-б.



7. A. Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” O‘zbekiston, T.:2009.
8. Xitoy iqtisodiyotidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga ta’sir etuvchi omillar, Turdiqulov Farrux Ravshanjon o‘g‘li
9. “Qo‘shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
<https://www.investopedia.com/terms/f/fdi.asp>
13. <http://lex.uz/>